



THE FORMATION OF TRADITIONAL MEDICINE AND A MODERN MEDICAL SERVICE SYSTEM IN THE KHIVA KHANATE

Oydinoy Ochilova

Associate Professor

Asian University of Technologies

Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Khiva Khanate, traditional medicine, modern medicine, medicinal plants, medical institutions, healthcare system, history of medicine.

Received: 17.03.25

Accepted: 19.03.25

Published: 21.03.25

Abstract: Under the topic "The formation of traditional medicine and a modern medical service system in the Khiva Khanate", the development of the healthcare system during the Khiva Khanate, the role of traditional medicine, and the processes of the introduction of modern medicine are studied. The study examines traditional treatment methods used in the Khiva Khanate, medicinal plants, the scientific foundations of medicine, and the specific aspects of the art of medicine. It also analyzes the introduction of modern medicine and its integration with traditional medicine during the 19th and 20th centuries, the formation of hospitals, medical institutions, and the healthcare system.

XIVA XONLIGIDA AN'ANAVIY TIBBIYOT VA ZAMONAVIY TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH TIZIMINING SHAKLLANISHI

Oydinoy Ochilova

dotsent

Osiyo texnologiyalar universiteti

O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, an'anaviy tibbiyot, zamonaviy tibbiyot, dorivor o'simliklar, tibbiy muassasalar, sog'liqni saqlash tizimi, tibbiyot tarixi.

Annotatsiya: Xiva xonligida an'anaviy tibbiyot va zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining shakllanishi" mavzusi ostida Xiva xonligi davridagi sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, an'anaviy tibbiyotning o'rni va zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi jarayonlari o'rganiladi.

Tadqiqotda Xiva xonligida qo'llanilgan an'anaviy davolash usullari, dorivor o'simliklar, tabobatning ilmiy asoslari va shifokorlik san'atining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, XIX–XX asrlar davomida zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi va an'anaviy tibbiyot bilan uyg'unlashuvi, shifoxonalar, tibbiy muassasalar va sog'lioni saqlash tizimining shakllanishi tahlil qilinadi.

ФОРМИРОВАНИЕ ТРАДИЦИОННОЙ МЕДИЦИНЫ И СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ

Ойдиной Очилова

Доцент

*Азиатский технологический университет
Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хивинское ханство, традиционная медицина, современная медицина, лекарственные растения, медицинские учреждения, система здравоохранения, история медицины.

Аннотация: традиционная медицина и становление современной системы медицинского обслуживания в Хивинском ханстве" исследуется развитие системы здравоохранения в Хивинском ханстве, роль традиционной медицины и процессы проникновения современной медицины. В исследовании рассматриваются традиционные методы лечения, используемые в Хивинском ханстве, лекарственные растения, научные основы медицины и особенности врачебного искусства. Также будет проанализировано проникновение современной медицины и ее слияние с традиционной медициной в XIX–XX веках, формирование больниц, медицинских учреждений и системы здравоохранения.

Xiva xonligida an'anaviy tibbiyot va uning turli yunalishlari asrlar davomida rivojlanib keldi. XIX - XX asr boshlarida xonlik aholisining tibbiy salomatligi, kasalliklar turlari va ularni davolash usullari, tabiblar faoliyati xamda garb davolash uslublarining kirib kelishi va uning natijasida ilk tibbiyot muassasalari tizimining shakllanishi kabi jixatlarni tadqiq etish mazkur davr jamiyati madaniy va ijtimoiy-maishiy xayotining ayrim tomonlarini yoritishga xizmat qiladi. Mazkur masalalar tadqiqotida o'z davrida yaratilgan tibbiyotga oid asarlar va tarixiy qo'lyozmalar, xorijiy sayyoxlarning safarnoma, esdaliklari,

rus sharqshunos olim va zabitlarining asosan statistik xarakterdagi asarlari xamda arxiv xujjalari birlamchi manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xiva xonligining 1873 yilga qadar, ya’ni Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilgungacha bo‘lgan tibbiyot tarixi asosan yuqorida qayd etilganidek ikki manba, ya’ni tibbiy va tarixiy yo‘nalishda yaratilgan maxalliy asarlar xamda elchilar va xorijiy sayyoxdarning esdaliklarida aks etdi. Mazkur manbalarda kelgan ma’lumotlar xonlikda tibbiy bilimlar va ushbu fan soxasining rivojlanish dinamikasini hamda uzuq-yuluq bo‘lsada tabiblar faoliyati, axoli orasida mavjud kasallik turlari va davolash usullariga oidligi bilan xarakterlidir.

XIX asr tibbiyot yunalishida yaratilgan asarlarda xam o‘zidan oldingi davr adabiyotlari, ilmiy merosiga tayanish va murojaat etish xollari xam kuzatiladi. Xususan, Arabshoxiylar sulolasidan bo‘lgan, ilm-fan taraqqiyotiga xomiylik qilgan ma’rifatli xukmdorlardan Abulg‘oz Baxodirxonning tibbiyotga oid asari shular jumlasidandir.

Xiva xonligi saroy tarixchilari silsilasining so‘nggi vakillaridan biri Muxammad Yusuf Bayoniy o‘zining «Shajarayi Xorazmshoxiy» asarida Abulg‘oz Baxodirxonning «Shajarayi turk» tarixiy asarining muallifi ekanligini hamda mazkur xonning moxir tabib va tibbiyot fanining yetuk olimi xam bo‘lganini alovida qayd etadi[1]. Darxakikat, Abulg‘ozixonning tibbiyotga oid asari «Manofi’ al-inson» («Inson uchun foydali tadbirlar») deb nomlanib, uning nusxalari bugungi kungacha yetib kelgan. Asar eski turkiy (chigatoy) tilida yozilgan bo‘lib, u 4 qismdan iborat. E’tiborli jixati unda 105 tadan ortiq kasalliklar tavsifi xamda ularni davolash usullari haqidagi ma’lumotlarni uchratish mumkin. Shuningdek, Abulg‘oz Bahodirxon tibbiyotning turli yo‘nalish va tarmoqlari to‘g‘risida ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Xususan, akusherlik va ginekologiya, jarroxlik, terapiya, nevrologiya, pediatriya, psixiatriya, fiziateriya, teri va ko‘z kasalliklari, yuqumli kasalliklar, proktologiya, fizioterapiya, stomatologiya va dorishunoslik kabi tibbiyot sohalari yoritilgan[2].

Mazkur asarda keltirilgan ma’lumotlar, Xorazm diyorida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan kasalliklar xaqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini berish bilan birga, ularni samarali davolash usullari ham mavjud bo‘lganiga ishora qiladi. Shuningdek, tibbiyot sohasining yuqorida qayd etilgan turli tarmoqlari haqida bilimlarning asarda tizimli tarzda aks etgani fanning rivojlanish holati to‘g‘risida ham umumiy manzarani taqdim etadi.

XIX asr bosHLarida Xorazmda faoliyat yuritgan mashxur tabiblardan biri Nasriddin Hazorasbiy hisoblanadi. Olimning to‘liq ismi Ja’far Xo‘ja ibn Nasriddin Xo‘ja al-Husayniy al-Karvakiy Xazorasbiy bo‘lib, uning nisbasida kelgan ishoraga ko‘ra u aslida Xiva xonligining ma’muriy birliklaridan biri bo‘lgan. Xazorasbbekligning Karvak degan joyidan ekanligi ma’lum buladi. Nasriddin Xazorasbiy «Multakat al-tibb» («Tibbiy bilimlar jamlanmasi»)

asarining muallifi xisoblanib, asar 67 ta bobdan iborat. Uning boblarida kasalliklarning turlari xamda ularning dori vositalari va duolar yordamidagi davosi aks etgan. «Multakdt al-tibb»ni yozishda muallif Ibn Sinoning «al-Konun fi al-tibb», Imom Muxammad Bazzoliyning «Ihyo al-'ulum», va Abulg'ozixonning yuqorida keltirilgan «Manofi' al-inson» kabi asarlaridan foydalangan. Asar hijriy 1239-milodiy 1823-1824 yillarda yozib tugallangan[3].

Nasriddin Xazorasbiy «Multakat al-tibb» asarini yozishda nafaqt o‘zidan oldingi olimlar ilmiy merosiga tayandi, balki tibbiyat xaqidagi bilimlarni yangi ma’lumotlar asosida yanada boyitdi va rivojlantirdi. Uning fikricha, kasallikning paydo bo‘lishiga inson organizmidagi 4 ta suyuq modda, ya’ni qon, shilimshiq va sariq hamda qora safroning miqdoriy va sifatiy nisbagining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. «Multakat al-tibb» asarinining boblari qon olish usullari, inson bosh suyagi va miyasining anatomiysi, ko‘z, quloq va burun kasalliklari, tish kasalligi, o‘pka, buyrak va ichak kasalliklari, jinsiy kasalliklar kabilarga bag‘ishlangan. Shuningdek, uning alohida bobida bolalar kasalliklari turlari va davolash usullari yoritilgan[2].

Xiva xonligida tibbiyat holati va aholining xalq tabobatidan foydalanishi haqida 1819 yilda Xivaga go‘yoki elchi sifatida yuborilgan rus zobiti Nikolay Muravyovning 1822 yilda nashr etilgan esdaliklarida ham ayrim qaydlar uchraydi. Xususan, Nikolay Muravyov quyidagilarni bayon etadi: «Ularda (xivaliklarda) tibbiyat san’ati (fani) boshqa fanlarga nisbatan birmuncha yaxshiroq rivojlangan. Ular davolash jarayonida tashqi kasalliklar turlariga nisbatan doimo qarama-qarshi uslubni qo‘llaydilar. Masalan: isitma chiqqanda muz bilan, qaltiroq chog‘ida issiqlik bilan, darmonsizlikda qizdirish usullari bilan va hokazo. Tibbiyat bilan shug‘ullanish avlodiy kasb bo‘lib, tabiblar davolashning oddiy va lekin sir tutiladigan usullaridan hamda turli o‘tlarning shifobaxsh xususiyatidan juda yaxshi xabardorlar; umuman olganda jaroxatlarni juda mohirona davolaydilar. Xivaliklar hamma osiyoliklar kabi davolanishni xush ko‘radilar va yevropalik shifokorlar san’atiga katta ishonch bildiradilar. Ular kasallikka chalinganlarida tez-tez kinnachilarga murojaat etadilar “Qon olish sharq tabiblari tomonidan keng qo‘llaniladi. Ular qonni inson bosh qismidan oladilar»[4].

Ushbu qaydlar taxliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak avvalo tibbiyat fanining XIX asr boshlarida Xiva xonligida boshqa sohalarga nisbatan yaxshiroq rivojlanganligini hamda bu davrda aholi o‘rtasidagi ayrim kasalliklar, xususan, isitma ko‘tarilishi va et uvishish holatlarida hozirgi zamon tibbiyotida xamon qo‘llanib kelinayotgan an’anaviy davolashning usullaridan foydalanilganini anglash mumkin. Shuningdek, mahalliy tabiblarning shifobaxsh o‘tlar tarkibini va turli kasalliklarni davolashdagi samarasini juda yaxshi bilganliklarini, shuningdek, ayrim hollarda axoli tomonidan dam soluvchi va kinnachilarga ham tez-tez murojaat etilganligini alohida qayd etish lozim. Bundan tashqari, hijoma, ya’ni inson

boshidan qon olish amaliyotining ham mavjud bo‘lganini islom dini an’analarining mintaqaga nisbatan ta’siri sifatida baholash mumkin. Xususan, musulmon o‘lkalarida ushbu amaliyot juda keng tarqalgan va uning fiqhiy manbasi sifatida payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)dan kelgan xadislarni ko‘rsatish mumkin. Jumladan, Muhammad alayhissalom xodimalari Salamadan rivoyat qilingan hadisda kim boshidagi xastalikdan shikoyat qilsa, qon oldirsin va kim oyoq og‘rig‘idan shikoyat qilsa, xinno qo‘ydirsin, degan mazmundagi ko‘rsatmalar kelgan[5].

O‘z navbatida, dam solish va kinnachilik kasallikdan forig‘ bo‘lishning keng tarqalgan uslublaridan biri bo‘lganini 1863 yilda xonlikka tashrif buyurgan Arminiy Vamberi (1832-1913) o‘z xotiralarida bayon qiladi. Arminiy Vamberi Eronda xaj ziyyoratidan qaytayotgan o‘rta osiyolik musulmonlarga qo‘silib, ular hamroxligida Xivaga keladi. Kunlarning birida u yashagan uyning eshigi oldiga uning xaj ziyyoratidan kelgani xabarini eshitib bir necha nafar ayollar kaki shifo va (mukaddas) nafas so‘rab to‘planadilar. Xivaliklarga ko‘ra kaki shifo bu xojilar tomonidan Madina shahridan, Muhammad alayhissalom yashagan uydan olib kelinadigan tuproq bo‘lib, u har qanday kasalliklar uchun davo hisoblangan. Arminiy Vamberi kelgan ayollarni umidsiz qaytarmaslik va o‘zini xaqiqatdan ham xaj ziyyoratidan kelganining namoyoni sifatida uyining ostonasida muqaddas nafas, ya’ni dam solish bilan shug‘ullanganini qayd etadi[6]. Darxaqiqat, dam solish jarayoni Xiva xonligida davolashning alohida usuli bo‘lganini Nasriddin Hazorasbiyning «Multakat al-tibb» asari misolida ham ko‘rish mumkin. YA’ni, yuqorida qayd etilganidek, uning ushbu asari boblarida kasalliklar va ularni davolash turlari masalasida nafaqat dori vositalari, balki ayrim duolar xam aks etgan. Mazkur amaliyotning ildizi ham islom dini va uning mo‘tabar manbalari Kur’oni karim va Muhammad alayxissalomning bir necha xadislariiga borib taqaladi.

Arminiy Vamberi o‘z sayoxatnomasida asli istanbullik bo‘lgan Xoji Ismoil bilan Xivada uchrashganini e’tirof etib, u avval Bosfor qirg‘oqlari bo‘yida vakil, xammom mudiri, kalligraf, kimyogar va xatto sexregarlik bilan uzoq vaqt shug‘ullangan. Xoji Ismoilning Xivadagi uyida distillyatsiya uchun bir nechta kichik uskunalar bo‘lib, ular yordamida mevalar va boshqa maxsulotlardan tayyorlangan maxsus yog ishlab chiqargan. Hoji Ismoil tomonidan xozirlangan turli eliksir va suyuq malxamlarga xonlik axolisi orasida katta extiyoj bo‘lgan. Shuningdek, madorsizlikda qo‘llaniladigan, Turkiya va Eronda sevimli bo‘lgan dorivor o‘t damlamasi Xivada xam katta shuxrat qozongan. Hoji Ismoil o‘z dori vositalari bilan Xiva xoni Sayyid Muxammadxonni (1856-1864) uzoq vaqt ta’minlab turgan, biroq keyinchalik xon uning xizmatidan voz kechgan[6].

Foydalanilgan manba va adabitlar ro‘yxati:

1. Ушбу асарнинг нусхаларидан бири Абу Райхон Беруний номидаги Шарсшунослик институти кулёзмалар фондида 4701-инвентарь разами остида сакданади. Батафсил саранг: Ирисов А., Насиров А., Низамуддинов И. Сорок учених Средней Азии. - Ташкент, 1961. - С.91; Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. - Ташкент, 1980. С. 131.
2. Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. - Ташкент, 1980. - С.132.
3. Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. - Ташкент, 1980. - С.132.
4. Сборник восточных рукописей Академия наук Ўзбекской ССР. Т. VII. - Ташкент, 1964. - С. 304.
5. Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. - Ташкент, 1980. - С.136.
6. Абдуллаев А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. - Ташкент, 1980. - С. 138-140.
7. Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах. Ч. 2. - М., 1822. -С.138-140.
8. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Хадис ва Хаёт. 18-жуз. Тиб ва дам китоби. - Тошкент: «Hilol Nashr» нашриёт-матбааси, 2016. - Б.128.
9. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. Перевод с английского. - СПб, 1865. - С.70.
10. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. С картою Средней Азии. Перевод с английского. - СПб, 1865. - С. 70-71.